

Kafedra dotsenti, PhD A. T. Umirov.

TDYU bank ishi fakulteti BIA-76 guruh talabasi

Umarova Farangiz

Moliya bozorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari

Annotatsiya: *Moliya bozori resurslarni samarali taqsimlash, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va jahon iqtisodiyotida barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu maqolada ilg'or texnologiyalar, tartibga solish islohotlari va o'zgaruvchan bozor dinamikasi sharoitida moliya bozorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari ko'rib chiqiladi. Tahlil moliyaviy bozorlar oldida turgan asosiy muammolar va imkoniyatlarni o'rganadi hamda kelajakda barqaror o'sish va innovatsiyalar uchun potentsial strategiyalar haqida tushuncha beriladi.*

Kalit so'zlar: *Moliya bozori, qimmatli qog'ozlar, fond birjasi, qarz majburiyatlari, moliyaviy resurs.*

Kirish. Moliya bozori - bozorda olib boriladigan oldi-sotdi jarayonida pul va pulga teng keladigan qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyali bozorga aytiladi. Bu bozorda asosan jamg'arilgan pul mablag'laridan qarzga oluvchilar foydalanadilar va vaqtincha haq to'lab moliya mablag'larini o'zlashtirishlari mumkin. Masalan, tadbirkor o'z faoliyatidan tashqari ortiqcha pul mablag'ini boshqa bir muhtoj subyektga taklif qiladi. Moliya bozori banklarda, fond birjasida va auksionlarda o'tkaziladi. Moliya bozori kapital va moliyaviy xizmatlar oqimini ta'minlaydigan turli institutlar, ishtirokchilar va vositalarni o'z ichiga olgan murakkab ekotizimdir. So'nggi yillarda texnologik innovatsiyalarning jadal sur'atlari, moliyaviy globallashtirish va tartibga soluvchi o'zgarishlar butun dunyo bo'ylab moliyaviy bozorlarning tuzilishi va dinamikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Natijada, manfaatdor tomonlar asosiy muammolarni hal qilishga va bozor

samaradorligi, shaffofligi va barqarorligini oshirish uchun yangi imkoniyatlardan foydalanishga tobora ko'proq e'tibor qaratmoqda.

Asosiy qism. Moliyaviy bitimlarxarakteriga asosan , moliyaviy bozorning turkumlanishi bir nechta turlarga bo'linadi.

Qaytarish tamoyiliga ko'ra 2 ga ajraladi:

- qarz majburiyatlari (iste'molni ko'ndiradigan pul). Bu bozorda pul vaqtincha bozorga qarz sifatida gavidalanadi va olingan mablag' shaxsiy ehtiyojlar uchun ishlatiladi.

- kapital bozori (mulk)

Bu turdagi bozorda asosan qo'yilgan mablag'dan daromad olish uchun sotiladi va sotib olinadi. Ya'ni, pul shunchaki pul vazifasida emas balki kapital sifatida ro'l o'ynaydi va foyda keltirib turadi, aynan shu kabi foydalarni hisobga olgan holda kapital bozorining o'zi ham 2 turga bo'linadi, ular:

- ssuda kapital bozori;
- qimmatli qog'ozlar bozori.

Ssuda kapital bozori - pul shaklidagi kapitalni foiz asosida subyektlarga qarz sifatida taqdim etilishi va qisqa muddatli majburiyatlar muomalada bo'lishi. Bular, asosan, davlat va banklarning majburiyatlari hisoblanadi.

Qimmatli qog'ozlarning birlamchi va ikkilamchi bozori - o'z nomi bilan anglasak ham bo'ladiki, bu bozordagi operatsiyalar aksiya, obligatsiya, veksellar va boshqa turdagi qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi qilinadi. Jahon hayotining baynalminallashuvi natijasida moliyaviy bozor vujudga kelgan. Mamlakatning iqtisodiyotidagi eng muhim ko'rsatkichlardan biri bu moliyaviy bozor hisoblanadi. Bu bozorda sotishni istaganlar va sotib olishni istagida bo'lganlar yuzlashadilar, ammo O'zbekistondagi aholi qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatni pasaytirmoqda. Iqtisodiyotning real sektor va moliya bozorida bolayotgan uzilishlar sababli moliya bozori ishtirokchilari korxonalariga investitsiya taqdim etish jarayonida qiyinchilarga duch kelmoqda. Hozirgi kunda uy xo'jaliklarining moliya bozoriga kirib borishj orqali qimmatli qog'ozlar faoliyatini yaxshiroq yo'lga qo'yish ko'zda tutilmoqda. Bundan tashqari, yurtimiz bozorlarida kreditlash, pul

o'tkazmari, inkassatsiya, moliyaviy kafolatlash va valyuta oldi - sotdisi, eng asosiysi sug'urtalash kabi xizmatlar yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Iqtisodiy rivojlangan davlatlarda qo'llaniladigan birja, lizing, reytinglash ,qayta sug'urtalash va moliyaviy resurslarni to'g'ri boahqarish kabilar kutilgan natijalar bermadi.

2023- yil 5- apreldagi konferensiya "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" markazida "Moliya bozorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari" mavzusida respublika konferensiyasi o'tkazildi. Bu konferensiya O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida tashkillashtirilgan bo'lib, unda yurtimizning qator ilmiy izlanish qilayotgan kadrlari va nufuzli ta'lim muassasalari professorlari, shuningdek, xalqaro miqyosdagi kompaniyalar rahbarlari Respublikamiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish yo'lidagi nazariy bilim, ko'nikma va malakalarini konferensiya qatnashuvchilari bilan o'rtoqlashishdi. Asosiy maqsad, eng avvalo moliyaviy bozorni shakllantirgan va yaxshilagan holda milliy iqtisodiyotni yanada rivojlantirish , yuqori o'sish sur' atlar uchun maqsadlar qo'yildi. Hozirgi kunda jahon moliya bozori arxitekturasida yuz berayotgan va salbiy ta'sirini ko'rsatayotgan beqarorlikni kamaytirish maqsadida professorlar, mutaxassislar va ilmiy- xodimlar takliflar bildirishdi, iqtisodiyotda milliy moliya bozorining ahamiyatini, iqtisodning modernizatsiyasi, inflatsiyani pasaytirish va investitsiyalarni ko'p miqdorda jalb qilish, moliya bozorining samaradorligini raqobatdoshligini va xavfsizligini barqaror qilish, risksizlik darajasini ta'minlash bilan bog'liq ekanligini ta'kidlab o'tdilar. Moliya bozori bo'sh mablag'larni harakatga keltirib, ularni moliyaviy resurslarga, aholi qo'lidagi harakatsiz pullarni daromad keltiruvchi manbaga aylantiradi. Depozitlar, veksellar, valyuta, aksiya, obligatsiya, derivativ (hosilaviy qimmatli qog'ozlar) va sug'urta bozorlarini o'z ichiga oladigan moliya bozori odatda iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Moliya bozorini taraqqiy toptirish, raqobat muhitini yaxshilash,

monopoliyani yo'qotish, moliyaviy boshqaruvning yangi turlarini qo'llashga ko'maklashish, xo'jalik yurituvchi subyektlarga investitsiyalarni jalb qilish bilan birga qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish orqali ijtimoiy muammolarni ham hal etishga xizmat qiladi va insonlar uchun har tomonlama qulayli yaratish maqsadida foydalaniladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, strategiyaga asoslangan yirik kompaniyalar akaiyadorlik kapitalidagi davlat ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish yo'llarini korib borish zarur. Buning natijasida yirik investitsiyalarga talab yuqori bo'lgan tarmoqlarda ishlab chiqarish hajmini oshirish, bandlikni ko'paytirish va byudjet daromadlarini oshirish imkoniyatini yaratib beradi. Moliya bozorini rivojlantirish nafaqat davlat katta korxonalar uchun shakllanish imkoni, balki mazkur bozor ishtirokchilari hisoblangan oddiy aholi uchun ham mablag'larni jalb qilishga imkon beradi. Mazkur holatlarning barchasi O'zbekistonda moliya bozorini rivojlantirish uchun yagona konsepsiyaga kuchli ehtiyoj mavjudligidan dalolat beradi. Bozorda aynan qimmatli qog'ozlar emissiyasi va ularning oldi-sotdisi bilan operatsiyalarni amalga oshirish moliyaviy bozorga xos xususiyat hisoblanadi. Bu bozorning asosiy vazifasi iqtisodiyot ravnaqi uchun zarur investitsiya mablag'larini jamlash ularni taqsimlash, mulkchilikni rivojlantirish, qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan oldi-sotdi yo'li bilan bozorni qayta taqsimlash, vekselar, obligatsiyalar, qimmatli qog'ozlarni bozorga chiqarish yordamida davlat va AJ qarzini moliyalashtirish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G.F.Ismoilova. M.M.Parpieva. Davlat statistika qo'mitasi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutining "O'zbekiston statistika axborotnomasi" ilmiy elektron jurnali. 2022 yil, 2-son "O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivojlanishida raqamli texnologiyalarning ahamiyati"
2. Giyasova N.B. Raqamli iqtisodiyotni tartibga solishning nazariy ahamiyati va rivojlanish yo'nalishlari "Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining tutgan o'rni" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya, 2023-yil 23- noyabr, Toshkent, O'zbekiston